



# ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## ANDIJON VILOYATIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025-yil yanvar oyi  
uchun dastlabki ma'lumot

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi:*  
74 228-30-37



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2025-yil yanvar oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 258,9 mln. AQSh dollariga yetdi va 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 76,7 mln. AQSh dollariga yoki 22,9 % ga kamaydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar, mln. AQSh dollari)

### Tashqi savdo aylanmasi

2025- y.: **258,9** (-22,9 %)

(2024- y.: **335,6**)



**Saldo**

2025- y.: **-143,3** (2024- y.: **-215,2**)



### Eksport

2025- y.: **57,8** (-4,0 %)

(2024- y.: **60,2**)

### TSA dagi ulushi

77,7 %


22,3 %



### Import

2025- y.: **201,1** (-27,0 %)

(2024- y.: **275,4**)












**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi 57,8 mln. AQSh dollariga (4,0 % ga kamaydi) va import hajmi 201,1 mln. AQSh dollariga (27,0 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 143,3 mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2025-yil yanvar, mln. AQSh dollari)











<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 88,2</p> <p>Eksport: 3,3 Import: 84,9</p> <p> 34,1 %</p>	<p><b>Koreya Respublikasi</b></p> <p>TSA – 42,7</p> <p>Eksport: 0,2 Import: 42,5</p> <p> 16,5 %</p>	<p><b>Rossiya</b></p> <p>TSA – 42,0</p> <p>Eksport: 17,0 Import: 25,0</p> <p> 16,2 %</p>	<p><b>Afg‘oniston</b></p> <p>TSA – 12,0</p> <p>Eksport: 12,0 Import: 0,0</p> <p> 4,6 %</p>	<p><b>Qirg‘iz Respublikasi</b></p> <p>TSA – 10,8</p> <p>Eksport: 6,2 Import: 4,6</p> <p> 4,2 %</p>
<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 10,4</p> <p>Eksport: 9,4 Import: 1,1</p> <p> 4,0 %</p>	<p><b>Braziliya</b></p> <p>TSA – 9,8</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 9,8</p> <p> 3,8 %</p>	<p><b>Meksika</b></p> <p>TSA – 6,1</p> <p>Eksport: - Import: 6,1</p> <p> 2,4 %</p>	<p><b>Slovakiya</b></p> <p>TSA – 6,0</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 6,0</p> <p> 2,3 %</p>	<p><b>Hindiston</b></p> <p>TSA – 5,8</p> <p>Eksport: 2,4 Import: 3,4</p> <p> 2,2 %</p>











Andijon viloyati jahonning 67 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (34,1 %), Koreya Respublikasida (16,5 %), Rossiya Federatsiyasida (16,2 %), Afg‘onistonda (4,6 %), Qirg‘iz Respublikasida (4,2 %) va Qozog‘istonda (4,0 %) qayd etilgan.



## ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar, mln. AQSh dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
<b>XXR</b>	<b>69,6</b>	<b>126,9</b>	<b>88,2</b>
 <i>Eksport</i>	9,5	7,7	3,3
<i>Import</i>	60,1	119,2	84,9
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>95,4</b>	<b>79,5</b>	<b>42,7</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,2
<i>Import</i>	95,4	79,5	42,5
<b>Rossiya</b>	<b>22,9</b>	<b>37,3</b>	<b>42,0</b>
 <i>Eksport</i>	15,2	19,0	17,0
<i>Import</i>	7,7	18,3	25,0
<b>Afg'oniston</b>	<b>0,1</b>	<b>0,3</b>	<b>12,0</b>
 <i>Eksport</i>	0,1	0,3	12,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>21,4</b>	<b>7,5</b>	<b>10,8</b>
 <i>Eksport</i>	19,8	5,6	6,2
<i>Import</i>	1,6	1,9	4,6
<b>Qozog'iston</b>	<b>10,7</b>	<b>24,2</b>	<b>10,4</b>
 <i>Eksport</i>	10,0	23,5	9,3
<i>Import</i>	0,7	0,7	1,1
<b>Braziliya</b>	<b>22,2</b>	<b>12,5</b>	<b>9,8</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	22,2	12,5	9,8
<b>Meksika</b>	<b>13,6</b>	<b>9,0</b>	<b>6,1</b>
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	13,6	9,0	6,1
<b>Slovakiya</b>	<b>2,4</b>	<b>2,2</b>	<b>6,0</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	2,4	2,2	6,0
<b>Hindiston</b>	<b>2,7</b>	<b>2,2</b>	<b>5,8</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,2	2,4
<i>Import</i>	2,7	2,0	3,4

Davlatlar		2022- y.	2023- y.	2024- y.
	<b>Turkiya</b>	<b>11,8</b>	<b>2,8</b>	<b>3,6</b>
	<i>Eksport</i>	3,4	0,3	0,7
	<i>Import</i>	8,4	2,5	2,9
	<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>1,4</b>	<b>2,6</b>	<b>3,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	2,5	3,1
	<i>Import</i>	1,3	0,2	0,2
	<b>Vetnam</b>	<b>0,1</b>	<b>0,6</b>	<b>2,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,1	0,6	2,4
	<b>AQSH</b>	<b>5,2</b>	<b>16,1</b>	<b>2,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,2
	<i>Import</i>	5,2	16,0	2,1
	<b>Germaniya</b>	<b>3,9</b>	<b>0,9</b>	<b>2,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,0
	<i>Import</i>	3,8	0,9	2,3
	<b>Polsha</b>	<b>0,9</b>	<b>1,5</b>	<b>1,1</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,1
	<i>Import</i>	0,8	1,5	1,0
	<b>Tayland</b>	<b>0,9</b>	<b>0,6</b>	<b>1,0</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,9	0,6	1,0
	<b>Ukraina</b>	<b>0,3</b>	<b>0,4</b>	<b>0,9</b>
	<i>Eksport</i>	0,3	0,4	0,9
	<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
	<b>Pokiston</b>	<b>0,1</b>	<b>1,0</b>	<b>0,9</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,7
	<i>Import</i>	0,0	0,9	0,2
	<b>Chexiya</b>	<b>1,1</b>	<b>1,3</b>	<b>0,8</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	1,1	1,3	0,8



## ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2025-yil yanvar, mln AQSH doll.)




Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 52,4 % ulush bilan 135,6 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Bo'ston tumani 0,3 % ulush bilan 0,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2025-yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 26,5 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,8 % ga oshdi.



Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2025-yilning yanvar oyida 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,8 % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi 73,5 % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2025-yil yanvar holatiga ko'ra, 68,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 37,4 mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import 31,1 mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



### ANDIJON VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2025-yil yanvar, ulushi, % da)



Rossiya – 61,2



Qozog'iston – 15,2



Qirg'iz  
Respublikasi – 15,7



Belarus – 4,8



Ukraina – 1,3



Moldova – 0,8



Ozarbayjon – 0,5



Turkmaniston – 0,3



Tojikiston – 0,2



Armaniston – 0,0




Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushi, Rossiya Federatsiyasi (61,2 %), Qozog'iston (15,2 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (15,7 %) bilan qayd etildi.



## ANDIJON VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Andijon viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 66,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 35,6 mln. AQSh dollari, import hajmi esa 30,9 mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## ANDIJON VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni 170 taga yetdi va ular tomonidan 57,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2024-yilning mos davriga nisbatan 4,0 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2025-yil yanvar)



5,9%

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,2%

2. Ichimliklar va tamaki



0,8%

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



19,7%

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar



0,2%

5. Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar



0,4%

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



21,2%

7. Sanoat tovarlari



11,3%

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



33,3%

9. Turli xil tayyor buyumlar



7,0%

10. Xizmatlar



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln. AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
<b>Jami eksport</b>	<b>60,2</b>	<b>57,8</b>	<b>99,8</b>	<b>96,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,5	3,4	99,7	2,3 m.	2,5	5,9
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	44,3	137,0	0,2	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,1	0,5	11,8	4,7 m.	0,2	0,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,1	11,4	5,5 m.	163,6 m.	0,1	19,7
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,11	-	-	0,0	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,7	0,2	69,9	32,9	1,1	0,4
Sanoat tovarlari	17,2	12,2	77,5	71,2	28,6	21,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	21,0	6,5	2,2 m.	31,0	34,9	11,3
Turli xil tayyor buyumlar	18,9	19,2	77,3	101,7	31,4	33,3
Xizmatlar	0,6	4,0	140,0	642,0	1,0	7,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 93,0 % ni tashkil etib, ular turli xil tayyor buyumlar (33,3 %), sanoat tovarlari (21,2 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar (19,7 %), mashinalar va transport asbob uskunalari (11,3 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2025-yil yanvar)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2024-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	3 113,7	2,2 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	124,6	-
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	87,0	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	75,0	2,1 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	143,4	137,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	341,0	9,8 m.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	61,2	178,9
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	47,8	3,2 m.
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo	4,5	37,6
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	11 395,2	163,6 m.
<b>Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moyi va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	111,7	-
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyo moddalari	182,8	8,8 m.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	32,4	170,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	4,8	66,3
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojaxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	2,3	5,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1,4	0,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,1	0,3


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2024-yilning mos davriga nisba-tan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	10 530,2	63,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	692,2	5,5 m.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	440,4	160,9
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	372,7	5,8 m.
Rangli metallar	136,0	3,5 m.
Cho'yan va po'lat	48,4	11,6 m.
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	21,3	174,5
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	4,1	4,6 m.
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	2,3	6,9
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	3 993,0	27,4
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	1 537,0	26,8
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari	563,4	3,4 m.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	126,6	196,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	83,9	19,1
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	64,4	3,0 m.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	18 601,1	100,1
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	301,8	9,8 m.
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	130,6	66,4
Poyabzal	110,6	134,4
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	63,5	21,6 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	34,1	142,9
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	7,2
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	0,1	21,6

Andijon tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2025-yilning yanvar oyida MDH mamlakatlariga 37,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportdagi ulushi 64,7 % ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)




■ MDH davlatlari

■ Boshqa davlatlar

2025-yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston, XXR, Qirg'iz Respublikasi, Ozarbayjon va Belarus kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 92,2 % ni tashkil etdi.



## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025-yil yanvar, % da)






## ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Rossiya Federatsiyasi	19,0	17,0	125,1	89,3	2	1
Afg'oniston	0,3	12,0	4,3 m.	38,9 m.	8	2
Qozog'iston	23,5	9,3	2,4 m.	39,6	1	3
Qirg'iziston	5,6	6,1	28,4	108,8	4	4
Xitoy	7,7	3,3	80,9	42,5	3	5
Belarus	2,5	3,1	29,2 m.	127,5	5	6
Xindiston	0,2	2,4	2359,3 m.	16,0 m.	10	7
Ukraina	0,4	0,9	105,8	2,5 m.	6	8
Turkiya	0,3	0,8	9,0	2,5 m.	9	9
Pokiston	0,1	0,7	89,1	6,9 m.	12	10
Moldova Respublikasi	0,0	0,5	0,0	-	17	11
Ozarbayjon	0,3	0,3	167,5	100,7	7	12
AQSh	0,1	0,3	39,0 m.	2,0 m.	11	13
Litva	0,0	0,2	-	-	18	14
Polsha	0,0	0,2	0,0	-	19	15
Birlashgan Arab Amirliklari	0,01	0,2	-	31,6 m.	16	16
Koreya Respublikasi	0,02	0,2	12,1 m.	7,5 m.	14	17
Tojikiston	0,03	0,1	3,2	3,0 m.	13	18
Ruminiya	0,01	0,1	-	16,1 m.	15	19
Latviya	0,00	0,1	-	-	20	20



## ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2025-yil yanvar, mln AQSH doll.)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Shahrixon tumani 23,8 % bilan 13,8 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Xonobod sh. 0,02 % bilan 0,01 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI




Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2025-yil yanvar oyida 12,6 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 13,1 ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (40,1 %), Rossiya Federatsiyasi (23,3 %), Pokiston (17,6 %), Afg'oniston (8,0 %) hamda Polsha (2,5 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2025-yil yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi 70,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavotlar eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 86,4 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 5,9 % ni tashkil etdi.







### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2025-yil yanvar, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Uzum</b></p> <p>8,3 mln AQSH dollari</p> <p>11,3 ming tonna</p> <p>2,8 m. ↑</p> 	<p><b>Karam</b></p> <p>2,0 mln AQSH dollari</p> <p>10,0 ming tonna</p> <p>13,2 % ↑</p> 	<p><b>Bodring</b></p> <p>2,2 mln AQSH dollari</p> <p>3,0 ming tonna</p> <p>40,2 % ↑</p> 	<p><b>Pomidor</b></p> <p>3,5 mln AQSH dollari</p> <p>3,8 ming tonna</p> <p>62,3 % ↑</p> 
<p><b>Sabzi</b></p> <p>5,8 mln AQSH dollari</p> <p>35,5 ming tonna</p> <p>28,4 % ↑</p> 	<p><b>Piyoz</b></p> <p>2,8 mln AQSH dollari</p> <p>7,9 ming tonna</p> <p>26,9 % ↑</p> 	<p><b>Yeryong'oq</b></p> <p>0,6 mln AQSH dollari</p> <p>0,8 ming tonna</p> <p>49,5 % ↑</p> 	<p><b>Qovun va tarvuz</b></p> <p>5,6 mln AQSH dollari</p> <p>25,2 ming tonna</p> <p>- 12,2 % ↓</p> 



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2025-yil yanvar)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	96,8	28 147,2	40,1
 Rossiya Federatsiyasi	17,8	16 306,7	23,3
 Pokiston	2,8	12 342,1	17,6
 Afg'oniston	1,0	5 610,4	8,0
 XXR	3,6	2 695,6	3,8
 Polsha	0,8	1 728,1	2,5
 Turkiya	0,6	1 636,0	2,3
 Latviya	1,1	390,9	0,6
 BAA	0,1	332,0	0,5
 Qozog'iston	0,2	275,7	0,4
 Belarus	0,2	184,2	0,3
 AQSh	0,02	57,8	0,1
 Mongoliya	0,1	36,9	0,1
 Ukraina	0,1	28,4	0,04
 Saudiya Arabistoni	0,05	12,5	0,02

\* qiymat ifodasidan



2025-yil yanvar oyida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 40,1 %), bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 1,7 barobar ko'p.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2025-yil yanvar oyida yakuni bo'yicha 492,1 mln. AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 41,3 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 1,2 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (55,0 %), ip kalava (31,2), trikotaj mato (12,6 %) asosiy ulushni egallagan.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar, mln AQSh dollari)



492,1 (2023 y.: 498,2)

Jami



270,5 (290,4)

Tayyor to'qimachilik mahsulotlari



153,5 (129,3)

Ip kalava



61,9 (59,2)

Trikotaj mato



5,5 (10,1)

Ipak va ipak mahsulotlari




0,6 (2,4)


Gazlamalar

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2025-yil yanvar, mln AQSH doll.)



 Xizmatlar eksporti hajmi 4,0 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 7,0 % ini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 5,4 marta ga oshdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (9,4 %), safarlar (turizm) (84,3 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (3,3 %) va transport xizmatlar (3,0 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## ANDIJON VILOYATINING IMPORTI



2025-yilning yanvar oyida import hajmi 201,1 mln. AQSh dollarini va 2024-yilning mos davriga nisbatan 27,0 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (52,4 %), sanoat tovarlari (22,8 %) hamda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (12,9 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar)



2,4 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,01 %

2. Ichimliklar va tamaki



0,6 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



12,9 %

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar



0,1 %

5. Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar



5,5 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



22,8 %

7. Sanoat tovarlari



52,4 %

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



3,3 %

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,1 %

11. Xizmatlar



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025-yilning yanvar oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 66,7 mln. AQSh dollariga kamaydi va 200,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,2 mln. AQSh dollariga yetdi.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
<b>Jami import</b>	<b>275,4</b>	<b>201,1</b>	<b>117,0</b>	<b>73,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,1	4,9	193,4	226,8	0,8	2,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	-	34,2	0,0	0,01
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,2	1,2	87,4	93,8	0,4	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	15,2	25,9	758,8	170,0	5,5	12,9
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,2	0,0	-	0,0	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	17,5	11,1	66,9	63,3	6,3	5,5
Sanoat tovarlari	49,8	45,9	108,3	92,1	18,1	22,8
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	174,3	105,4	116,3	60,4	63,3	52,4
Turli xil tayyor buyumlar	7,3	6,6	109,4	89,3	2,7	3,3
Xizmatlar	7,8	0,2	447,3	2,5	2,8	0,1



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2025-yil yanvar)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2024-yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	1 576,8	4,3 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 565,0	4,2 m.
Sabzavotlar va mevalar	370,6	96,5
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	303,0	4,4 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	381,1	85,2
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	160,4	51,8
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	34,4	30,0
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	481,3	5,6 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	12,2	34,2
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	80,8	112,0
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	57,0	-
Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina ham)	383,9	181,1
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	335,2	83,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari	12,8	4,1
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	119,7	1 4,8 m.
Metall rudalari va metall parchalari	0,0	0,0
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	22 035,6	164,7
Ko'mir, koks va briketlar	3 481,0	2,8 m.
Tabiiy yoki sun'iy gaz	336,3	55,5
<b>Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moyi va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	179,8	-
Hayvonlar va o'simliklar moyi va yog'lari, qayta ishlangan	0,0	-
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyo moddalari	2 775,3	39,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	3 671,3	126,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1 770,9	48,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	786,3	46,6
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	641,2	108,2
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	709,1	78,2

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2024-yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	22 839,4	91,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	7 473,1	78,3
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	10 703,4	110,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	3 178,6	84,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	562,2	44,1
Rangli metallar	686,6	184,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi	298,2	5,8 m.
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	80,8	112,0
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	30,3	59,3
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	70 721,1	54,9
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari	11 178,4	70,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	10 384,5	91,1
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	3 002,0	38,3
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	5 007,9	72,4
Metallarni qayta ishlash mashinalari	1 161,0	5,4 m.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	3 625,7	130,4
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	177,5	39,5
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	1 682,7	113,5
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 961,5	56,3
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 190,3	79,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 377,6	226,8
Poyabzal	115,5	83,8
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	71,1	124,9
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	142,8	2,4 m.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	15,6	112,4






2025-yil yanvar natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlaridan import ulushi 15,5 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,8 % ga oshdi

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2025-yil yanvar oyida Andijon viloyati 45 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Meksika, Braziliya, AQSh va Slovakiya) jami importning 10 dan 9 qismini tashkil etdi.



## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025-yil yanvar, % da)






## ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar, yillar kesimida)

Davlatlar	mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Xitoy	119,1	84,9	198,2	71,3	1	1
Koreya Respublikasi	79,5	42,6	83,3	53,6	2	2
Rossiya Federatsiyasi	18,3	25,0	2,4 m.	136,6	3	3
Braziliya	12,5	9,8	56,2	78,2	5	4
Meksika	9,0	6,1	65,9	68,4	6	5
Slovakiya	2,2	6,0	92,2	2,7 m.	8	6
Qirg'iziston	1,9	4,6	118,7	2,4 m.	10	7
Xindiston	2,0	3,4	74,3	166,2	9	8
Turkiya	2,5	2,9	29,2	117,6	7	9
Vetnam	0,6	2,4	4,3 m.	4,0 m.	16	10
Germaniya	0,9	2,3	22,9	2,6 m.	14	11
AQSh	16,0	2,1	3,1 m.	13,1	4	12
Qozog'iston	0,7	1,1	97,3	157,3	15	13
Tailand	0,6	1,0	58,6	175,2	17	14
Polsha	1,5	1,0	184,1	64,0	11	15
Chexiya	1,3	0,8	115,3	62,4	12	16
Eron Islom Respublikasi	1,0	0,6	115,8	54,7	13	17
Portugaliya	0,5	0,5	100,3	120,5	18	18
Vengriya	0,0	0,5	0,4	920,7 m.	20	19
Shvetsiya	0,3	0,5	67,0	147,9	19	20



## ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2025-yil yanvar, mln AQSH doll.)



2025- y.


2024- y.

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 63,0 % bilan 126,6 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Bo'ston tumani 0,04 % bilan 0,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI


(2025-yil yanvar, mln AQSH dollarida)




2025-yilning yanvar oyi yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 0,2 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,1 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 97,5 % ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi Intellectual mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar, boshqa joyda tasniflanmagan (61,7 %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, boshqa joyda tasniflanmagan (38,3 %) ga tegishli bo'ldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

 2025-yil yanvar oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 45,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,9 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 22,8 % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2025-yil yanvar, ulushi, % da)

28,1 mln AQSH doll.  
*Ulushi – 61,4 %*



**XXR**

6,2 mln AQSH doll.  
*Ulushi – 13,5 %*



**Koreya  
Respublikasi**

4,1 mln AQSH doll.  
*Ulushi – 9,0 %*



**Slovakiya**

2,1 mln AQSH doll.  
*Ulushi – 4,6 %*




**Braziliya**

1,5 mln AQSH doll.  
*Ulushi – 3,4 %*



**Meksika**

 Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (22,8 mln. AQSh dollari), rezina buyunlari (10,7 mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (7,5 mln. AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (3,2 mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.